

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01
RAQAMLI ILMIY KENGASHI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SHUKUROVA SULTANA SAIDSULTANOVNA

**TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA YUK TASHISH BO‘YICHA
DAROMADLAR VA XARAJATLAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, audit va iqtisodiy tahlil

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Shukurova Sultana Said Sultanovna

Temir yo'l transportida yuk tashish bo'yicha daromadlar va xarajatlar tahlilini
takomillashtirish.....3

Шукурова Султана Саидсултановна

Совершенствование анализа доходов и расходов от грузовых перевозок на
железнодорожном транспорте.....27

Shukurova Sultana Said Sultanovna

Improving the analysis of income and expenses from freight transportation by
railway.....53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....61

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01
RAQAMLI ILMIY KENGASHI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SHUKUROVA SULTANA SAIDSULTANOVNA

**TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA YUK TASHISH BO‘YICHA
DAROMADLAR VA XARAJATLAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, audit va iqtisodiy tahlil

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2025.1.PhD/Iqt5139 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portali (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Babaxalov Narbo'ta Eshnazarovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xajimuratov Nizomjon Shukrullayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kalonov Muhiddin Bahriddinovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat transport universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSC.03/10.12.2019.i.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «__» kuni soat __dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 1000066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49 uy tel: (0371) 239-28-71, faks: (0371) 239-43-51, e-mail: tsue@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 1000066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy tel: (0 371) 239-28-71, faks: (0371) 239-43-51, e-mail: tsue@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «__» _____dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

S.U.Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, i.f.d., professor

U.V.Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, i.f.d., professor

S.K.Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida temir yo‘l transportida yuk tashish bo‘yicha daromadlar va xarajatlar tahlilini takomillashtirish logistik samaradorlikni oshirish, transport xarajatlarini optimallashtirish va global savdo zanjirlarining barqarorligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. To‘g‘ri tashkil etilgan tahlil orqali yuk tashish xizmatlari narxining shakllanishi aniq baholanadi, resurslardan samarali foydalanish imkoni yaratiladi va transport korxonalarining moliyaviy barqarorligi ta‘minlanadi. Shu bilan birga, xarajatlar va daromadlar o‘rtasidagi mutanosiblikni o‘rganish transport sohasida raqobatbardoshlikni oshirish hamda iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini tezlashtirishda katta rol o‘ynaydi. Xorijiy tadqiqotlarda ta‘kidlanishicha, “transport xizmatlari xarajat va daromad tahlilini takomillashtirish transport bozorlarining samaradorligi va jahon iqtisodiyotida integratsiya jarayonlarini kuchaytiruvchi omil sifatida qaraladi”¹. Bundan ko‘rinadiki, temir yo‘l transportida daromad va xarajat tahlilini takomillashtirish jahon iqtisodiyotida transport tizimi samaradorligi va barqaror rivojlanishni ta‘minlovchi asosiy yo‘nalish hisoblanadi.

Jahon miqyosida temir yo‘l transportida yuk tashish bo‘yicha daromadlar va xarajatlar tahlilini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari, asosan, transport samaradorligini oshirish va global ta‘minot zanjirlarini optimallashtirishga qaratilgan. Ilmiy izlanishlarda xarajatlarning strukturasi va ularning daromadlarga ta‘sirini chuqur tahlil qilish orqali yuk tashish xizmatlari narxini shakllantirishda shaffoflikni ta‘minlash, raqobat muhitini kuchaytirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu bilan birga, tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar va transport logistikasida sun‘iy intellektdan foydalanish orqali yuk tashish jarayonlarini prognoz qilish, xarajatlarni kamaytirish va xizmat sifatini oshirish masalalari keng o‘rganilmoqda. Xalqaro amaliyotda ham ekologik barqarorlik talablarini hisobga olgan holda «yashil logistika» modellarini joriy qilish orqali xarajatlarni optimallashtirish va daromad salohiyatini oshirish yo‘nalishlari ustuvor tadqiqot mavzusiga aylangan.

O‘zbekistonda temir yo‘l transportida yuk tashish bo‘yicha daromadlar va xarajatlar tahlilini takomillashtirish sohasida belgilangan vazifalar, avvalo, transport xizmatlari samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan. Xususan, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tomonidan xarajatlarni to‘liq va shaffof hisobga olish, daromadlarning manbalarini diversifikatsiya qilish, raqamli texnologiyalar asosida hisob-kitob tizimini avtomatlashtirish hamda logistika jarayonlarini optimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, yuk tashish tariflarini bozor mexanizmlari asosida shakllantirish, xarajatlarni kamaytirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish hamda daromad va xarajatlar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblangan temir yo‘l korxonalariga

¹ OECD/ITF, Railway Efficiency: Costs and Revenue Analysis in Freight Transport, International Transport Forum, Paris, 2019. URL: <https://doi.org/10.1787/transport-rail-efficiency-en>

yo'naltirilayotgan xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatda temir yo'l transporti korxonalarining infratuzilmasini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga raqobatbardoshlikning ilmiy asoslarini yaratish talab etilmoqda. Shu jihatdan, xorijiy tajribalar asosida temir yo'l korxonalari hisobi va auditining tashkiliy-uslubiy asoslarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ««O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida», 2023-yil 21-iyuldagi PF-111-son "Ma'muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2019-yil 1-fevraldagi PF-5647-son "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yil 10-oktabrdagi PQ-329-son "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda ushbu soha faoliyatiga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Temir yo'l transportida yuk tashish samaradorlik ko'rsatkichlarining iqtisodiy tahlili bo'yicha ilmiy ishlar olib borgan xorijiy iqtisodchi olimlardan A.Smit, D.Rikardo, F.Teylor J.Keyns P.Samuelson, M.Porter ilmiy izlanishlarida iqtisodiy daromadlar va xarajatlar tahlili, samaradorlik va raqobatbardoshlik bo'yicha nazariyalar ma'lum darajada tadqiq etilgan².

Bundan tashqari Garvard universiteti professori Myrto Kalouptsidi ilmiy ishlari asosan transport bozorlari, xalqaro savdo va davlat siyosatining iqtisodiy ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan³.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari ham iqtisodiy samaradorlik mavzusida muhim ilmiy ishlar olib borishgan, xususan L.Abalkin, V.Leontyev, M.Blinov, V.Koshkin, A.Volkov, A.Treshin, K.Berentayev, B.Danilishin, L.Shmakina, A.Nagiyev, S.Atayev, A.Rahmonov va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, makro va mikroiqtisodiy siyosatlarning ta'siri kabi masalalar chuqur

² A. Smith. The wealth of nations. London. 1976, Дэвид Рикардо Тижорат ва сиёсий иқтисоднинг тамойиллари -2022.

³ Kalouptsidi, M. (2018). Geography, Transportation, and Endogenous Trade Costs. *Econometrica*.

Kalouptsidi, M. (2020). Search Frictions and Efficiency in Decentralized Transport Markets. *Journal of Political Economy*.

Kalouptsidi, M. (2021). Research on port technologies and efficiency in shipping markets.

o'rganilgan va izohlangan⁴.

Daromadlar va xarajatlar tahlilini takomillashtirish yuzasidan ilmiy ishlar olib borgan o'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.Aliqulov, A.Achilov, K.Axmedjanov, B.Xasanov, N.Xajimuratov, N.Babaxalov, R.Dusmuratov, N.Abdusalomova, B.Maxsudov, R.Xolbekov, A.Ibragimov, A.Karimov, M.Kalonov, D.Mavlyanova, A.Pardayev, M.Pardayev, R.Raxmonov, S.Tashnazarov, A.Tuychiyev, M.Nabiyev, A.Maxmudov va boshqalar ilmiy izlanishlarida iqtisodiy daromadlar va xarajatlar nazariyasi ma'lum darajada tadqiq etilgan⁵.

Biroq yuqorida nomlari qayd etilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida aynan temir yo'l korxonlarida daromadlar va xarajatlar tahlilini takomillashtirish masalalari kompleks va yaxlit tarzda to'liq o'rganilmagan. Shu sababli, temir yo'l transportida yuk tashish bo'yicha daromadlar va xarajatlar tahliliga oid tashkiliy-uslubiy muammolarning mavjudligi va ularning iqtisodiy adabiyotlarda yetarli darajada tadqiq qilinmaganligi bu sohada chuqur ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №FM-6 "O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistika sohaları taraqqiyotining konseptual yo'nalishi" yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liq holda

⁴ Блинов М.Ю. (2001) "Тарифная политика в условиях рыночной экономики" ва "Экономическое обоснование тарифов на железнодорожные перевозки". Волков А.Б. (1988) "Экономика железнодорожного транспорта". Кошкин В.И. (1982) "Экономика железнодорожного транспорта" "Моделирование тарифной политики на транспорте". Тришин А.В. (2002) "Управление экономикой железнодорожного транспорта" ва "Методы оптимизации тарифной политики". Шаров А.Н. (2001) "Тарифная политика на железнодорожном транспорте в условиях рынка".

⁵ Абдусаломова Н.Б. Бошқарув ҳисоби тизимида ички назорат ва бюджетлаштириш услубиятини такомиллаштириш. Иқт. фанл. докт. (DSc) диссер. автореферати. – Т.: 2019, Алиқулов А.И. Харажатлар ҳисоби ва таҳлилининг назарий ҳамда амалий масалалари. Монография. – Т.: "Фан ва технология", 2011., Ахмеджанов К.Б. Хўжалик юритувчи субъектларда ички аудит методологиясини такомиллаштириш. 08.00.07. И.ф.д. дисс. автореферати. Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси. – Тошкент: 2016, Бабахалов Н.Э. Темир йўл транспорти корхоналари бухгалтерия ҳисоби ва иқтисодий таҳлил услубиятини такомиллаштириш Иқт. фан. док. дис. Автореф., Тошкент 2022., Бабахалов Н.Э. Темир йўл транспорти корхоналари бухгалтерия ҳисоби ва иқтисодий таҳлил услубиятини такомиллаштириш Монография, Тошкент 2022., Бабахалов Н.Э, Гулямов А.А., Мерганов А.М Тарифная политика АО "Ўзбекистон темир йуллари" Проблемы и решения – Монография, Тошкент- 2017, Дусмуратов Р.Д. Аудиторлик фаолияти: назария, услубиёт ва амалиёт: монография. – Т.: Молия наشريёти, 2007, Ибрагимов А.К. Ишлаб чиқариш харажатлари ҳисоби, аудити ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари таннархини аниқлашни такомиллаштириш. Иқт. фан. док. дис. автореф. – Тошкент: 2002, Каримов А.А. Корпоратив бошқарув тизимида бухгалтерия ҳисоби ва аудит. Монография. – Т.: "Иқтисод-молия", 2008, М.Б.Калонов Корхоналарда даромадлар ва харажатлар ҳисоби ҳамда таҳлили методологиясини такомиллаштириш. Диссертация иши - Тошкент 2019, Мавлянова Д.М. Жорий активлар ҳисоби, таҳлили ва аудитининг услубий жиҳатларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент: 2020, Махсудов Б.Й. Бошқарув ҳисобида бюджетлаштириш методологиясини такомиллаштириш. И.ф.д. (DSc) диссертация автореферати. 08.00.08. – Тошкент: 2018, Махмудов А.Н. Харажатлар ва даромадларнинг бошқарув ҳисоби ва ички аудити методологиясини такомиллаштириш. Иқт. фанл. докт. (DSc) диссер. автореферати. – Т.: 2023., Набиев М.А. Автосаноат корхоналарида тайёр маҳсулотлар ва уларни сотиш ҳисобини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021, Нурманов У.А. Жорий активлар ҳисоби ва таҳлилининг такомиллаштириш. И.ф.н... дисс. автореферати. – Тошкент: 2012, Пардаев А.Х., Пардаев Б.Х. Бошқарув ҳисоби. – Тошкент: 2008, Пардаев М.Қ. Иқтисодиётни еркинлаштириш шароитида иқтисодий таҳлилнинг назарий ва методологик муаммолари. Иқт. фан. док. дис. автореферати. – Тошкент: 2002, Рахмонов Р.Н. Товар-моддий захиралар ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш. И.ф.н... дисс. автореферати. – Тошкент: 2010.

bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi temir yo‘l transportida yuk tashish bo‘yicha daromad va xarajatlar tahlilini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yuk tashish bo‘yicha daromadlar va xarajatlar tahliliga oid xorijiy tajribalarni tadqiq etish va ulardan foydalanish imkoniyatlari tahlili;

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda yuk tashish bo‘yicha daromadlar va xarajatlarning hozirgi holatini tahlil qilish;

temir yo‘l transportida yuk tashish bo‘yicha daromadlar va xarajatlar tahlili uchun panel ma’lumotlarni tayyorlash;

temir yo‘l transportida yuk tashish bo‘yicha daromadlar va xarajatlar tahlilini takomillashtirishda yuk tashish turlari bo‘yicha daromad (tarif)ning 2030-yilgacha ekonometrik prognozini ishlab chiqish;

temir yo‘l transportida rentabellik darajasi manfiy bo‘lgan tashuvlar zararsizlik nuqtasining prognoz tahlilini olib borish;

temir yo‘l transportida yuk tashish bo‘yicha daromadlar va xarajatlarning alohida hisobini yuritish metodikasiga asoslangan hisob schetlarini amaliyotga tatbiq etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining iqtisodiy faoliyati belgilangan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib yuk tashish bo‘yicha daromadlar va xarajatlar tahlili hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, indikativ, tanlama kuzatuv, taqqoslash, korrelyatsion va regression tahlil, optimal model kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

temir yo‘l transportida daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishning differensiyalashgan yondashuvi orqali “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning transformatsiya jarayonida belgilangan moliyaviy natijalarga erishish ko‘rsatkichini oshirish imkonini ta’minlash asoslangan;

temir yo‘l transportida xarajatlar tarkibini yuk tashish, yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi tashish turlari bo‘yicha alohida hisob yuritish taklifi asoslanib, bu hisobot tizimini 3 bosqichli tartibda avtomatlashtirish orqali buxgalteriya hisobining aniqligi va shaffofligini oshirish taklifi ishlab chiqilgan;

temir yo‘l transportida daromadlar va xarajatlarning ekonometrik baholash mezonlari ishlab chiqilib, panel ma’lumotlari tahlili orqali sohadagi muammolarni aniqlash va ularning samarali yechimlarini ishlab chiqish imkoni asoslangan;

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning uzoq muddatli strategiyasini belgilovchi temir yo‘l transporti korxonalarining moliyaviy holatiga ta’sir etuvchi omillar negizida 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

temir yo‘l transportida daromadlar va xarajatlarning ekonometrik baholash mezonlari va panel ma’lumotlari tahlili asosida sohadagi muammolarni aniqlash va ularning yechimini ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

temir yo‘l transporti korxonasining moliyaviy holatiga ta’sir etuvchi ekonometrik modellashtirishning uzoq davrga mo‘ljallangan prognozi asosida “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ iqtisodiy faoliyatining istiqbolini ta’minlashda samarali rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish darajasi aniqlangan;

temir yo‘l transportida daromadlar va xarajatlar hisobining metodik yechimi yordamida “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ning transformatsiya jarayonidagi belgilangan natijalarga erishish imkoni yaratilgan;

temir yo‘l transportida xarajatlar tarkibi tegishliligi bo‘yicha yuk tashish, yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi tashish turlari bo‘yicha xarajatlar hisobini alohida yuritib borish natijasida xarajatlar hisobini alohida yuritishning qulay tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalarining amalda sinovdan o‘tganligi, ishlab chiqilgan modellarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi. Olingan natijalarning temir yo‘l transporti tarmog‘iga vakolatli tashkilotlardan o‘tganligi va tasdiqlanganligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlari tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan ilmiy-uslubiy tavsifdagi taklif va xulosalardan temir yo‘l transportida yuk tashish bo‘yicha daromadlar va xarajatlar tahlilini takomillashtirish borasida nazariy muammolar yechimini hal qilish hamda buxgalteriya hisobi va audit fanlarining istiqbolli yo‘nalishlarini rivojlantirishda nazariy-uslubiy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ilgari surilgan amaliy tavsifdagi taklif va tavsiyalardan temir yo‘l transportida yuk tashish bo‘yicha daromadlar va xarajatlar tahlilini takomillashtirish, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit bo‘yicha mutaxassislarni o‘qitish, attestatsiyadan o‘tkazish va malakasini oshirish tizimida, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarida “Iqtisodiy tahlil”, “Moliyaviy hisob”, “Moliyaviy hisobot”, “Audit” va “Audit va tegishli xizmatlar” fanlarini o‘qitish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Temir yo‘l transport tizimining iqtisodiy samaradorligi va xususiyatlaridan kelib chiqib ta’rif berilishi va tasniflanishi asosida:

temir yo‘l transportida daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishning differentsiyalashgan yondashuvi orqali “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning transformatsiya jarayonida belgilangan moliyaviy natijalarga erishish ko‘rsatkichini oshirish imkonini ta’minlash taklifi “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tomonidan “Temir yo‘l transporti tizimini tubdan isloh qilish yuzasidan chora-tadbirlari dasturi”ni ishlab chiqishda joriy etilgan (“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning 2025-yil 6-fevraldagi 02/533-25-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ning transformatsiya jarayonidagi belgilangan natijalarga erishish imkonini yaratgan;

temir yo‘l transportida xarajatlar tarkibini yuk tashish, yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi tashish turlari bo‘yicha alohida hisob yuritish taklifi asoslanib, bu hisobot tizimini 3 bosqichli tartibda avtomatlashtirish orqali buxgalteriya hisobining aniqligi va

shaffofligini oshirish taklifi “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tomonidan “Temir yo‘l transporti tizimini tubdan isloh qilish yuzasidan chora-tadbirlari dasturi”ni ishlab chiqishda joriy etilgan (“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning 2025-yil 6-fevraldagi 02/533-25-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida xarajatlar hisobini alohida yuritish va buxgalteriya hisobini yuritishda qulay tizim ishlab chiqilgan;

temir yo‘l transportida daromadlar va xarajatlarning ekonometrik baholash mezonlari ishlab chiqilib, panel ma’lumotlari tahlili orqali sohadagi muammolarni aniqlash va ularning samarali yechimlarini ishlab chiqish taklifi “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tomonidan “Temir yo‘l transporti tizimini tubdan isloh qilish yuzasidan chora-tadbirlari dasturi”ni ishlab chiqishda joriy etilgan (“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning 2025-yil 6-fevraldagi 02/533-25-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida sohadagi muammolarni aniqlash va ularning yechimini ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning uzoq muddatli strategiyasini belgilovchi temir yo‘l transporti korxonalarining moliyaviy holatiga ta’sir etuvchi omillar negizida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tomonidan “Temir yo‘l transporti tizimini tubdan isloh qilish yuzasidan chora-tadbirlari dasturi”ni ishlab chiqishda joriy etilgan (“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning 2025-yil 6-fevraldagi 02/533-25-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ iqtisodiy faoliyatining istiqbolini ta’minlashda samarali rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish darajasini aniqlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqotining asosiy g‘oyasi va natijalari ma’ruzalar shaklida 3 ta respublika, 1 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarida bayon etilgan va ma’qullangan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 12 ta ilmiy ish, shulardan OAKning dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 3 ta respublika, 2 ta xalqaro jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 138 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi keltirilgan, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida temir yo‘l transportining ahamiyati, uning cheklangan resurslar bilan jamiyatning cheklanmagan ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari va usullari o‘rganilgan. Dissertatsiya mavzusida temir yo‘l transportida yuk tashish bo‘yicha daromadlar va xarajatlar tahlilining nazariy va amaliy asoslari keltirilgan. Shu bilan birga, cheklangan resurslarni ishlab chiqarish, almashtirish, iste’mol qilish, taqsimlash va ulardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor beriladi. Nazariy tadqiqotlarni amalga oshirish, iqtisodiy tizimlarning ayrim elementlariga ta’sir qilishi kerak bo‘lgan tegishli qonunlar va takliflarni ishlab chiqish imkoniyatlari

o'rganilgan.

Dissertatsiyaning “**Temir yo‘l transportida yuk tashish bo‘yicha daromadlar va xarajalar tahlilining nazariy-uslubiy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida temir yo‘l transportidan olingan daromad mamlakat iqtisodiyotining turli sohalariga katta ta’sir ko‘rsatishi o‘rganilgan. Daromad va samaradorlikni oshirish uchun temir yo‘l infratuzilmasini yaxshilash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va boshqaruv tizimlarini rivojlantirish zarurligining dolzarbligi aniqlangan. Temir yo‘l transporti mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida va aholi turmush darajasini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega ekanligi keltirilgan.

Temir yo‘l transportida daromadning ortishiga asosiy sabab bu samaradorlikning oshishidir. Iqtisodiy samaradorlik – bu resurslardan samarali foydalanish orqali maksimal iqtisodiy natijalarga erishish darajasini ifodalovchi tushuncha. Iqtisodiy samaradorlikka erishish har qanday tashkilot yoki mamlakatning asosiy maqsadlaridan biridir.

Temir yul transportidan daromad va mamlakat iqtisodiyoti o‘rtasidagi bog‘liqlik juda muhimdir. Temir yul transporti mamlakat iqtisodiyotiga quyidagicha ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy samaradorlikning turlari turli resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy jarayonlarni yaxshilash imkonini beradi. Har bir turning o‘z o‘rni va ahamiyati bo‘lib, ularning har biri jamiyatning umumiy iqtisodiy farovonligini oshirishga hissa qo‘shadi.

1-jadval

Temir yo‘l transportining mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri⁶

Даромад манбалари:	Йўловчи ташиш: йўловчи ташишдан олинадиган даромад мамлакатнинг транспорт секторидаги умумий даромаднинг катта қисмини ташкил қилади. Бу, айниқса, юкори аҳоли зичлигига эга шаҳарларда муҳим.
	Юк ташиш: юк ташишдан тушадиган даромад ҳам катта аҳамиятга эга. Кўмир, металл, озиқ-овқат, саноат маҳсулотлари каби товарларнинг темир йўл орқали ташилиши иқтисодиётга катта ҳисса қўшади.
	Тарифлар ва бошқа хизматлар: темир йўл компаниялари турли хизматлар учун тарифлар белгилайди, шунингдек, логистика ва бошқа транспорт хизматлари орқали ҳам даромад олади.
Иқтисодий таъсир:	Иш ўринлари яратиш: темир йўл транспорти турли соҳаларда иш ўринларини яратади: қурилиш, техник хизмат кўрсатиш, логистика, бошқарув ва бошқалар.
	Транспорт ва логистика: юк ва йўловчиларни ташиш тезлаштирилиб, иқтисодиётнинг турли соҳалари ривожланишига қўмаклашади. Бу ишлаб чиқариш ва савдо секторларига сезиларли таъсир кўрсатади.
	Боғлиқлик ва интеграция: темир йўл транспорти мамлакатнинг турли ҳудудларини бирлаштиради, иқтисодий фаолиятни рағбатлантиради ва ички бозорни кучайтиради. Шунингдек, халқаро савдони осонлаштириб, экспорт ва импорт имкониятларини оширади.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**«O‘zbekiston temir yullari» AJda yuk tashish bo‘yicha daromadlar va xarajatlarning hozirgi holati tahlili**” deb

⁶ Mazkur jadval muallif tomonidan yaratilgan

nomlangan bo‘lib, unda “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning asosiy daromad va xarajat ko‘rsatkichlarining ekspress, retrospektiv va perspektiv tahlili o‘rganilgan.

2-jadval

“O‘zbekistonx temir yo‘llari” AJning 2017-2024 yillar natijalari bo‘yicha samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili

Ko‘rsatkichlar	Yillar							
	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Sotishdan tushgan sof tushum prognozi bajarilishi (mlrd so‘m)	5180,80	7248,10	8131,40	9277,30	9805,50	9953,20	11 443	11 973
Sof foyda (zarar) prognoz bajarilishi (mlrd so‘mda)	974,00	850,00	-353,00	37,00	187,00	-1174,0	-2 228	46,6
Aktivlar rentabelligi, %da	0,06	0,03	-0,01	0,00	0,01	-0,03	-0,06	0,01
Qoplash koeffitsiyenti (to‘lov qobiliyati)	6,32	6,96	5,85	6,99	5,87	5,08	5	7,01
Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	5,48	9,07	7,80	8,58	8,35	6,34	4	8,35
Eksport ko‘rsatkichining bajarilishi (pul hajmiga nisbatan, %da)	103,00	105,00	103,00	106,10	104,20	101,10	101	105,0
Mahalliyashtirish indikatori bajarilishi (%)	103,00	105,00	104,40	103,50	103,00	106,90	102	103,00

Yuqoridagi javdvalda “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning 2017-2024 yillar kesimida asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini ko‘rishimiz mumkin. Bunda 2017, 2018 yillar davomida sotishdan tushgan sof tushumning 2019-2023 yillarga nisbatan yuqori bo‘lishiga qaramasdan sof foydaning teskari ko‘rsatkichlari kuzatilgan. Sof foydaning o‘zgarishiga aktivlarning rentabelligi ko‘rsatkichi to‘g‘ri proporsional o‘zgarishi kuzatilgan. To‘lov qobiliyati hamda moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentlari foydaning kamayishi yoki zararining ortishiga qarab tushish tendensiyasida harakatlangan.

3-jadval

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning 2017-2024 yillar natijalari bo‘yicha qo‘shimcha samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili

Ko‘rsatkichlar	Yillar							
	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti	0,25	0,47	0,4	0,3	0,2	0,2	0,070	0,3
Kreditorlik qarzlarning aylanish davri, kun	92	87,2	77,9	72,3	68,7	80,3	87,40	72,3
Debitorlik qarzlarning aylanish davri, kun	73	65,3	61,2	87,0	88,1	93,6	150,4	87,0
Asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti	0,8	0,9	0,9	1,0	0,9	1,0	0,9	1,0
Mehnat unumdorligi	150744,9	199523,6	216878,3	239804,0	241003,2	243205,8	281614,0	239804,0
Fond qiymati	0,60	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,7	0,5
Xodimlar qo‘nimsizlik darajasi	1	1,1	1,0	1,0	1,0	1,0	0,9	1,0
Energiya samaradorligi (mahsulot tannarxidagi energiya xarajati ulushi)	0,11	0,10	0,11	0,11	0,11	0,12	0,11	0,11

Temir yo‘l orqali yuk tashish jarayoni ko‘pgina ta’sir etuvchi omillar va turli xil ko‘rsatkichlar bilan baholanadi. Bularning barchasi, ayniqsa, ushbu davr uchun xos bo‘lgan rivojlanish va modernizatsiya davrida uni o‘rganishni qiyinlashtiradi. Modellashtiriladigan obyektning (temir yo‘l transporti korxonasi) murakkabligi sababli uni tizimli tahlil metodologiyasidan foylanib o‘rganish taklif etiladi.

Dissertatsiyaning **“Temir yo‘l transportida yuk tashish bo‘yicha daromadlar va xarajatlar tahlilini takomillashtirish”** nomli uchinchi bobida temir yo‘l transportida daromadlar va xarajatlarni baholash mezonlari va panel ma’lumotlar tahlili, temir yo‘l transporti korxonalarida zararsizlik nuqtasi tahlilining samaradorlik ko‘rsatkichiga ta’siri, temir yo‘l transportida daromadlar va xarajatlarning ekonometrik modellashtirilishi va prognozlashtirish istiqbollari o‘rganilgan.

Dastlabki ma’lumotlarning qiymatlari modellashtirilganda va ishlab chiqilgan hisoblash algoritmlariga muvofiq ularga samaradorlik ko‘rsatkichlarining qiymatlari hisoblanganda, statistik sinov usuli (Monte-Karlo usuli) taklif etiladi.

Bunda har bir samaradorlik ko‘rsatkichi uchun n hajm hosil bo‘ladi:

$$X(x_1, x_2, \dots, x_n) \quad (1)$$

Shunday qilib, har bir ko‘rsatkich gistogramma chastota va empirik funksiyalar kesimida tuziladi.

Quyida zararsizlikni aniqlash uchun samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblash formulalari keltirilgan:

Bir yillik xarajatlar:

$$V = X \cdot Q + K, \quad (2)$$

Bunda, Q – yuk aylanmasi, X – 1 tonna-km yuk aylanmasiga to‘g‘ri keluvchi o‘zgaruvchan xarajatlar, K – doimiy xarajatlar.

Yillik daromad:

$$G = Y \cdot Q + D, \quad (3)$$


Bunda, Y – 1 tonna-km yuk aylanmasi narxi, D – bo‘lishi mumkin bo‘lgan dotatsiya.

Zararsizlik nuqtasi:

$$Q_0 = \frac{K - D}{Y - X} \quad (4)$$

Immitatsion modellashtirishda nisbiy chastotalarning gistogrammalari, shuningdek matematik kutishning nuqta va intervalli baholari zararsizlanish nuqtasi va yuk aylanmasi birligiga investitsiya qilingan daromad uchun aniqlanadi.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning 2023 yil yakunlari moliyaviy ko‘rsatkichlari bo‘yicha boshlang‘ich ko‘rsatkichlar (matematik kutilishni baholash uchun) $K = 4321$, 2 mln so‘mni tashkil etgan, $X = 2783,9$ mln sum Y – bir tonna-km yukning narxi (tashish qatnovi, tashish masofasi va vagon turiga qarab farqlanadi), $Q = 29\,630,7 \approx 30$ mln tonna-km.



1-rasm. Yuk tashish turi va masofasidan kelib chiqib zararsizlik nuqtasining aniqlanish grafigi⁷

Doimiy xarajatlar va tashishni tashkil etish xarajatlari umumiy t-km yuk aylanmasiga teskari proporsionaldir. ya'ni hozirgi kunda tashish tannarxi hisoblashda umumiy xarajatlarning yuk tashish aylanmasiga nisbati bilan aniqlanadi. Demak, tashish hajmi oshgani sayin tashish tannarxi kamayadi va foyda oshishi kuzatiladi hamda tashish bilan bog'liq xarajatlar o'zgaruvchanligi va doimiy xarajatlar o'zgarmasligi (nisbiy const) bilan ifodalanadi. Tashish hajmi o'zgarishi bilan tashish bilan bog'liq xarajatlar ulushi domiy xarajatlar ulushiga nisbatan ortadi.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning qator yillar (2012-2023 y.y.) davomida faoliyati ko‘rsatkichlari ekonometrik tadqiq qilingan. Ekonometrik modellashirish metodologiyasi asosida ko‘p omilli ekonometrik tahlil o‘tkazish uchun quyidagi omillar tanlab olindi. Natijaviy omil – yuk tashishdan olinadigan daromad, doll. 1 tonna (Y), ta’sir etuvchi omillar – yuk tashish tannarxi, so‘m 10 t.km. ga (X_1), inflyatsiya darajasi, % (X_2), foyda solig‘i, mln. so‘m (X_3) va o‘rtacha yillik almashuv kursi, so‘m (X_4). (Ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritilayotgan omillarning o‘lchov birliklari turlicha bo‘lganligi sababli, ushbu omillarning logarifmlangan qiymatlari olindi).

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning yuk tashishdan olinadigan daromadiga ta’sir etuvchi omillar va ular asosida ekonometrik modellar tuzishda eng kichik kvadratlar usulidan foydalanildi. Ushbu usul asosida ekonometrik tadqiqotlar o‘tkazish uchun omillar bo‘yicha tavsifiy statistika o‘tkazamiz.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ma’lumotlari asosida tanlangan omillar bo‘yicha o‘tkazilgan tavsifiy statistika natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

⁷ Mazkur grafik muallif tomonidan amalga oshirilgan hisob kitoblar asosida yaratilgan


“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ma’lumotlari bo‘yicha tavsifiy statistika natijalari⁸

Ko‘rsatkichlar	lnY	lnX ₁	lnX ₂	lnX ₃	lnX ₄
Mean	7.490613	7.091456	2.447976	6.988037	8.547801
Median	7.482893	7.162172	2.452548	10.30202	8.768451
Maximum	7.666280	7.920810	2.863343	11.04345	9.370530
Minimum	7.395303	6.280939	2.095561	0.000000	7.544300
Std. Dev.	0.090059	0.635910	0.227047	5.172025	0.736635
Skewness	0.524632	-0.071599	0.097581	-0.693649	-0.200127
Kurtosis	2.107766	1.417902	2.187228	1.499860	1.281745
Jarque-Bera	5.948519	4.261771	4.349343	2.087509	2.556302
Probability	0.000278	0.000320	0.000312	0.002130	0.001254
Sum	89.88735	85.09748	29.37571	83.85644	102.5736
Sum Sq. Dev.	0.089217	4.448200	0.567052	294.2483	5.968938
Observations	12	12	12	12	12

Jadval ma’lumotlaridan kuzatuv olib borilayotgan tanlamadagi har bir o‘zgaruvchining o‘rtacha qiymatlari (mean), medianasi (median), maksimal va minimal qiymatlarini (maximum, minimum) ko‘rish mumkin. Masalan, natijaviy omilning (yuk tashishdan olinadigan daromad, lnY) o‘rtacha qiymati 7,4906, mediana qiymati 7,4829, maksimal qiymati 7,6663, minimal qiymati esa 7,3953 ga teng.

Std. Dev. (Standart Deviation) – standart chetlanish koeffitsiyenti har bir o‘zgaruvchilarning o‘rtacha qiymatdan qanchalik chetlanganligini ko‘rsatadi.

Skewness – asimmetriya koeffitsiyenti bo‘lib, u nolga teng bo‘lsa, normal taqsimot ekanligi hamda taqsimotning simmetrikligini bildiradi. Agar bu koeffitsiyent 0 dan ancha farq qilsa, u holda taqsimot asimmetrik hisoblanadi (ya’ni, simmetrik emas). Agar asimmetriya koeffitsiyenti 0 dan katta bo‘lsa, taqsimot o‘ng tomonga surilgan bo‘ladi, 0 dan kichik bo‘lsa, taqsimot chap tomonga surilgan bo‘ladi. Barcha omillarning taqsimot funksiyalari grafiklari quyidagi rasmda keltirilgan.



2-rasm. Omillar taqsimot funksiyalari grafiklari⁹

Demak, rasmda keltirilgan grafiklardan ko‘rish mumkinki, lnY va lnX₂ omillarning asimmetriya koeffitsiyentlari qiymatlari musbat bo‘lib (1-jadval), ular

⁸ Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

⁹ Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

taqsimotning o'ng tomonga surilganini ko'rsatadi. Ammo, $\ln X_1$, $\ln X_3$ va $\ln X_4$ omillarning asimmetriya koeffitsiyentlari qiymatlari manfiy bo'lib (4-jadval), ular taqsimotning chap tomonga surilganini ko'rsatadi.

Kurtosis – bu eksess koeffitsiyenti (normal taqsimotda u 3 ga teng) taqsimot cho'qqisining o'tkirligini o'lchaydi (2-rasm). Agar eksess koeffitsiyenti 3 dan katta bo'lsa, u holda taqsimot o'tkir cho'qqili bo'ladi, 3 dan kichik bo'lsa, tekis bo'ladi (tekis cho'qqi). Tadqiq qilinayotgan barcha omillarning eksess koeffitsiyentlari qiymati 3,0 kichik bo'lganligi sababli, ular o'tkir cho'qqiga ega emas (3-rasm).

Jarque-Bera statistikasi yordamida omillarni normal taqsimotga bo'ysunishini tekshiramiz. Bundan tashqari, Jarque-Bera statistikasi har bir omil uchun ehtimolliklarni (Probability) ham ko'rsatadi. Agar Jarque-Bera statistikasi bo'yicha biror omilning ehtimolligi (Probability) 0,05 dan kichik bo'lsa, ular normal taqsimotga bo'ysunadi va tuziladigan ko'p omilli ekonometrik modelga kiritiladi.

Demak, 4-jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, omillarning Jarque-Bera statistikasi qiymatlarining ehtimolligi (Probability) 0,05 dan kichik.

Ushbu omillarni ko'p omilli ekonometrik modelga kiritish yoki kiritilmasligi bo'yicha qaror qabul qilishdan oldin omillar o'rtasidagi bog'lanishlarni hisoblash zarur. Omillar o'rtasidagi bog'lanishlarni topish uchun korrelyatsiya koeffitsiyentlarini hisoblash kerak.

Korrelyatsiya koeffitsiyenti quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$r_{\ln Y, \ln X_i} = \frac{\overline{\ln Y \cdot \ln X_i} - \overline{\ln Y} \cdot \overline{\ln X_i}}{\sigma_{\ln Y} \cdot \sigma_{\ln X_i}}, \quad (5)$$

bu yerda $\sigma_{\ln Y}$, $\sigma_{\ln X_i}$ - omillarning o'rtacha kvadratik chetlanishini ko'rsatadi.

5-jadval

Omillar o'rtasida korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi¹⁰

+Probability					
	$\ln Y$	$\ln X_1$	$\ln X_2$	$\ln X_3$	$\ln X_4$
$\ln Y$	1,000000				
$\ln X_1$	0.953487	1,000000			
	10.00282	-----			
	0.0000	-----			
$\ln X_2$	0.722653	0.252788	1,000000		
	6.390815	0.826221	-----		
	0.0001	0.4280	-----		
$\ln X_3$	-0.679183	-0.562738	-0.201287	1,000000	
	-3.870866	-2.152742	-0.649827	-----	
	0.0109	0.0568	0.5304	-----	
$\ln X_4$	0.916098	0.585943	0.336266	-0.523387	1,000000
	7.225147	1.66074	1.129117	-1.942382	-----
	0.0000	0.0757	0.2852	0.0808	-----

Omillar o'rtasida bog'lanishlar qiymatlarini quyida keltirib o'tamiz. Korrelyatsion tahlil natijasida omillar o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi qiymatlari 5-jadvalda keltirilgan.

¹⁰ Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

5-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, bu yerda ko'p omilli ekonometrik modelga kiritiladigan omillar o'rtasida bog'lanish zichliklari ko'rsatkichlari – korrelyatsion matritsa keltirilgan. Ushbu korrelyatsion matritsada 2 turdagi korrelyatsiya koeffitsiyentlarining hisoblangan qiymatlari keltirilgan:

1) xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari, ya'ni natijaviy omil ($\ln Y$) va ta'sir etuvchi omillar ($\ln X_i$) o'rtasidagi bog'lanishlarni aks ettiradi;

2) juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari, ya'ni ta'sir etuvchi omillar ($\ln X_i, X_j$) o'rtasidagi bog'lanishlarni aks ettiradi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari omillar o'rtasida yetarli darajada kuchli bog'lanishlarni ko'rsatmoqda. Yuk tashishdan olinadigan daromad ($\ln Y$) va yuk tashish tannarxi ($\ln X_1$) omili o'rtasida zich bog'lanish ($r_{\ln Y, \ln X_1} = 0,9535$) mavjud. Yuk tashishdan olinadigan daromad ($\ln Y$) va inflyatsiya darajasi ($\ln X_2$) omili o'rtasida o'rtacha bog'lanish ($r_{\ln Y, \ln X_2} = 0,7227$) mavjud. Yuk tashishdan olinadigan daromad ($\ln Y$) va foyda solig'i ($\ln X_3$) omili orasida o'rtacha teskari bog'lanish ($r_{\ln Y, \ln X_3} = -0,6792$) mavjud. Shuningdek, yuk tashishdan olinadigan daromad ($\ln Y$) va o'rtacha yillik almashuv kursi ($\ln X_4$) omili orasida zich bog'lanish ($r_{\ln Y, \ln X_4} = 0,9161$) mavjudligini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, korrelyatsiya koeffitsiyentlarining ishonchligini Styudentning t-mezoni orqali tekshiramiz. Buning uchun hisoblangan korrelyatsiya koeffitsiyentlarining t-statistikasi va ehtimolligini t-statistikaning jadval qiymatlari bilan taqqoslaymiz. Ozodlik darajasi $df = 4$ hamda $\alpha = 0,05$ ishonchlilik ehtimolligida t-statistikaning jadval qiymati $t_{\text{жадвал}} = 2,3646$ ga teng.

5-jadvalda natijaviy omil – yuk tashishdan olinadigan daromad ($\ln Y$) va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasida xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari bo'yicha t-statistika va ehtimolliklarni ko'rib chiqamiz.

Yuk tashishdan olinadigan daromad ($\ln Y$) va yuk tashish tannarxi ($\ln X_1$) omili o'rtasida hisoblangan $t_{\ln Y, \ln X_1} = 10,0028$, $prob = 0,0000$ ga teng. Bu esa hisoblangan t-statistikaning jadval qiymatidan katta ($t_{\ln Y, \ln X_1} = 10,0028 > t_{\text{жадвал}} = 2,3646$) ekanligini ko'rsatadi va ular o'rtasidagi bog'lanish ishonchli hisoblanadi.


Yuk tashishdan olinadigan daromad ($\ln Y$) va inflyatsiya darajasi ($\ln X_2$) omili o'rtasida hisoblangan $t_{\ln Y, \ln X_2} = 6,3908$, $prob = 0,0001$ ga teng. Bu esa hisoblangan t-statistikaning jadval qiymatidan katta ($t_{\ln Y, \ln X_2} = 6,3908 > t_{\text{жадвал}} = 2,3646$) ekanligini ko'rsatadi.

Yuk tashishdan olinadigan daromad ($\ln Y$) va foyda solig'i ($\ln X_3$) omili o'rtasida hisoblangan $t_{\ln Y, \ln X_3} = |-3,8709|$, $prob = 0,0109$ ga teng. Bu esa hisoblangan t-statistikaning jadval qiymatidan katta ($t_{\ln Y, \ln X_3} = |-3,8709| > t_{\text{жадвал}} = 2,3646$) ekanligini ko'rsatadi.

Yuk tashishdan olinadigan daromad ($\ln Y$) va o'rtacha yillik almashuv kursi ($\ln X_4$) omili o'rtasida hisoblangan $t_{\ln Y, \ln X_4} = 7,2251$, $prob = 0,0000$ ga teng. Bu

esa hisoblangan t-statistikaning jadval qiymatidan katta ($t_{\ln Y, \ln X_4} = 7,2251 > t_{\text{жадвал}} = 2,3646$) ekanligini ko'rsatadi.

Omilar o'rtasidagi bog'lanish holatlarini quyidagi rasmda ham vizual ko'rish mumkin.



3-rasm. Omillarning natijaviy ko'rsatkich bilan bog'lanish zichliklari grafigi¹¹

Shuni ta'kidlash joizki, ko'p omilli regression modelni tuzishda pirovard natijalarning asoslanganligi omillar orasidagi birgalikdagi ta'sirning pastligi (multikollinearlikning mavjud emasligi) sharti bilan izohlanadi. Agar ikki omil orasidagi o'zaro kuchli aloqani inobatga oluvchi juft korrelyatsiya koeffitsiyentining qiymati 0,7 dan katta bo'lsa, bunday omillar multikollinear hisoblanadi. 6-jadval ma'lumotlarida multikollinearlik alomatlari kuzatilmaydi (barcha ta'sir etuvchi omillar (X_i, X_j) o'rtasidagi bog'lanish zichliklari 0,7 dan kichik ekanligini ko'rish mumkin). Bu esa, o'z navbatida, tanlangan barcha omillarni ko'p omilli ekonometrik modelga kiritish shartiga mos keladi.

Ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikollinearlik mavjud emasligini tekshirishning yana bir usuli – bu VIF (Variance Inflation Factors – multikollinearlik samarasi) koeffitsiyentlarini hisoblashdir. Har bir omil bo'yicha hisoblangan VIF koeffitsiyentlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

¹¹ Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

Ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikollinearlik samarasini o'lchash¹²

Variable	CoefficientVariance	CenteredVIF
$\ln X_1$	0.010442	5.675576
$\ln X_2$	0.002303	1.595667
$\ln X_3$	4.55E-06	1.637171
$\ln X_4$	0.007695	3.612482
C	0.022964	NA

Agar ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikollinearlik mavjud bo'lsa, u holda $\text{CenteredVIF} > 10$ bo'ladi. 6-jadvaldan ko'rish mumkinki, "O'zbekiston temir yo'llari" AJda yuk tashishdan olinadigan daromad ($\ln Y$) bo'yicha barcha ta'sir etuvchi omillarning VIF koeffitsiyentlari 10 dan kichik. Demak, bu ham omillar o'rtasidagi korrelyatsiya tahlili kabi ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikollinearlik mavjud emasligini ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilayotgan natijaviy omilni geteroskedastlikka, ya'ni ko'p omilli ekonometrik model tasodifiy xatosining bir xil bo'lmagan (ortish yoki kamayib borish tartibidagi) dispersiyasida ifodalangan kuzatishlarni bildiradi.

Bunday holatni aniqlash uchun kengaytirilgan Diki-Fuller testi o'tkazildi. Diki-Fuller testi natijalari 7-jadvalda keltirilgan.

Geteroskedastlikni aniqlash uchun kengaytirilgan Diki-Fuller testi¹³

			t-Statistic	Prob.*
Augmented Dickey-Fuller test statistic			4.543999	0.0375
Testcriticalvalues:	1% level		-4.297073	
	5% level		-3.212696	
	10% level		-2.747676	
*MacKinnon (1996) one-sided p-values.				

Geteroskedastlikni aniqlash bo'yicha Diki-Fuller testida ham ehtimollik ($\text{prob.} = 0,0375$) 5 foizdan kichik ekan va bu natijaviy omil qatorida geteroskedastlik mavjud emasligi va statsionar ekanligini ko'rsatmoqda.

Yuqorida keltirilgan korrelyatsion tahlil omillarning barchasini ko'p omilli ekonometrik modelga kiritishni ko'rsatadi. Ushbu omillar asosida ko'p omilli ekonometrik model tuzamiz. Tuziladigan ko'p omilli ekonometrik modelning ko'rinishi quyidagicha:

$$\ln Y = \ln a_0 + a_1 \ln X_1 + a_2 \ln X_2 + a_3 \ln X_3 + a_4 \ln X_4 + \varepsilon \quad (6)$$

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ ma'lumotlari bo'yicha EViews 10 dasturida ko'p omilli ekonometrik modelning analitik ko'rinishini olish uchun hisob-kitoblarni amalga oshiramiz. Natijalar quyidagi 8-jadvalda keltirilgan.

¹² Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

¹³ Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

Regressiya tahlili natijalari¹⁴

Dependent Variable: Y

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
LN _{X1}	0,252733	0,080185	3,151874	0,0226***
LN _{X2}	-0,01925	0,008208	-2,345029	0,0523**
LN _{X3}	0,001257	0,000524	2,398855	0,0443***
LN _{X4}	-0,09649	0,037721	-2,558098	0,0417***
C	6,561515	0,151540	43,29890	0,0000***
R-squared	0.935790	Mean dependent var		7.490613
Adjusted R-squared	0.899099	S.D. dependent var		0.090059
S.E. of regression	0.028607	Akaike info criterion		-3.975978
Sum squared resid	0.005729	Schwarz criterion		-3.773934
Log likelihood	28.85587	Hannan-Quinn criter.		-4.050782
F-statistic	25.50439	Durbin-Watson stat		2.017197
Prob(F-statistic)	0.000287			

5-jadvalda keltirilgan hisob-kitoblar asosida ko‘p omilli ekonometrik modelning analitik ko‘rinishini yozamiz:

$$\ln \hat{Y} = 6,5615 + 0,2527 \cdot \ln X_1 - 0,0192 \cdot \ln X_2 + 0,0013 \cdot \ln X_3 - 0,0965 \cdot \ln X_4$$

$$(43,299) \quad (3,152) \quad (-2,345) \quad (2,399) \quad (-2,558) \quad (7)$$

(Qavslar ichida keltirilgan qiymatlar har bir omilning ishonchliligini aniqlaydigan Student t-mezoni qiymatlari).

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda yuk tashishdan olinadigan daromad ($\ln Y$) bo‘yicha tuzilgan (7) ko‘p omilli ekonometrik modeldan shuni ko‘rish mumkinki, korxonaning yuk tashish tannarxi ($\ln X_1$) bir foizga oshsa, yuk tashishdan olinadigan daromad ($\ln Y$) o‘rtacha 0,2527 foizga ortgan. Respublikada inflyatsiya darajasi ($\ln X_2$) bir foizga oshsa, yuk tashishdan olinadigan daromad ($\ln Y$) o‘rtacha 0,0192 foizga kamgan. Korxonaning foyda solig‘i ($\ln X_3$) bir foizga oshsa, yuk tashishdan olinadigan daromad ($\ln Y$) o‘rtacha 0,0013 ga ortgan. Respublikada o‘rtacha yillik almashuv kursi ($\ln X_4$) bir foizga oshsa, yuk tashishdan olinadigan daromad ($\ln Y$) o‘rtacha 0,0965 foizga kamagan.

Tuzilgan (2) ko‘p omilli ekonometrik modelning sifatini baholash uchun determinatsiya koefitsiyentidan (R -squared) foydalanamiz. Determinatsiya koefitsiyenti 0,9358 ga teng, ya‘ni “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda yuk tashishdan olinadigan daromad 93,58 foizga ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritilgan omillardan tashkil topgan. Qolgan 6,42 foizi esa hisobga olinmagan omillar ta’siri to‘g‘ri keladi.

Tuzilgan (7) modelning o‘rganilayotgan jarayonga mos kelishini (adekvatligini) tekshirishda Fisherning F -mezonidan foydalanamiz. F -mezonning hisoblangan qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$F_{\text{хисоб}} = \frac{R^2}{1-R^2} \cdot \frac{n-m-1}{m}, \quad (8)$$

¹⁴ Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

bu yerda: R^2 - determinatsiya koeffitsiyenti; n - kuzatuvlar soni; m - omillar soni.

F -mezonning hisoblangan qiymati $F_{\text{hisob}} = 25,5044$ ga teng. Agar Fisherning hisoblangan qiymati jadvaldagi qiymatdan katta bo'lsa, u holda tuzilgan ko'p omilli ekonometrik model statistik ahamiyatli yoki o'rganilayotgan jarayonga mos (adekvat) deyiladi. F -mezonning jadval qiymatini topamiz. Buning uchun ozodlik darajalari $k_1 = m$ ba $k_2 = n - m - 1$ hamda α ahamiyatlik darajasi bo'yicha qiymatlarni hisoblaymiz. Ahamiyatlik darajasi $\alpha = 0,05$ va ozodlik darajalari $k_1 = 4$ ba $k_2 = 12 - 4 - 1 = 7$ dan kelib chiqib, F -mezonning jadval qiymati $F_{\text{jadval}} = 4,12$ ga teng.

$F_{\text{hisob}} > F_{\text{jadval}}$ shartni qanoatlantiradi, bu esa, F -mezonning hisoblangan qiymati jadvaldagi qiymatidan katta ekanligini hamda tuzilgan ko'p omilli ekonometrik modelning statistik ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

Hisoblangan ko'p omilli ekonometrik modeldagi (7) parametrlarning ishonchliligini Styudent t -mezonni orqali tekshiramiz. t -mezonning jadval qiymatini tanlangan ishonchlilik ehtimoli (α) va ozodlik darajasi (d.f. = $n - m - 1$) shartlari asosida topamiz. Bu yerda n - kuzatuvlar soni, m - omillar soni. Ishonchlilik ehtimoli $\alpha = 0,05$ va ozodlik darajasi d.f. = $12 - 4 - 1 = 7$ bo'lganda, t -mezonning jadval qiymati $t_{\text{jadval}} = 2,3646$ ga teng.

Ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan barcha omillar bo'yicha t -mezonning hisoblangan qiymatlari $\alpha = 0,05$ aniqlikda va $\alpha = 0,1$ aniqlikda jadval qiymatidan katta ekanligini ko'rish mumkin (5-jadval). Bu esa barcha omillarning ishonchli ekanligini bildiradi va mazkur omillarga ko'p omilli ekonometrik modelda ishtirok etishiga imkon beradi.

